

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” FANIDAN

REFERAT

**Mavzu: Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk
solig'i va uni hisoblash**

Bajardi: BI-50 guruh talabasi Karimov A.

Ilmiy rahbar: dots. Shirinov S.

TOSHKENT-2017

Reja:

Kirish

1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig`ini mohiyati va ahamiyati
2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari, soliq solish bazasini aniqlash jarayoni
3. Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkdan undiriluvchi soliqni hisoblash va byudjetga to'lash jarayoni

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Respublikamiz aholisining turmush farovonligi yildan- yilga ortib bormoqda. Prezidentimiz o'z asarlarida mamlakatimizda mehnatni rag'batlantirish, ish haqini ko'paytirish va aholi daromadlari o'sishini ta'minlashga qaratilgan siyosatni amalga oshirish bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalar haqida alohida to'xtalib o'tgan. Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida mamlakat iqtisodiyotining barqaror va dinamik rivojlanishi tufayli aholi hayot darajasi va sifatining izchil o'sishi ta'minlanmoqda. 2014 yilda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdori 20,8 foizga, aholining real daromadlari esa – 16 foizga o'sganligi taakidlagan¹.

Darhaqiqat, fuqarolarning daromadlari darajasi o'sishi ko'chmas mulkka bo'lgan ehtiyojini ortiradi. Har-bir fuqaroning o'zi uchun zarur bo'lgan uy-joyiga ega. Ayrim fuqarolarimizning bir-nechta uylari, hovlilari mavjud. Bugungi kunda muhatsham qurilgan uylar soni ham ortib bormoqda. Respublikamiz aholisining aksariyat qismi ishlab topgan daromadlari evaziga ko'chmas mulk olishga harakat qiladi. Shu sababli, ko'chmas mulk tom ma'noda fuqarolarning nafaqat yashash joyi hisoblanadi, balkim qo'shimcha daromad olish manbasiga ham aylanmoqda. Aholining ko'chmas mulk ko'rinishidagi mulklarini ortib borishi, ko'chmas mulk munosabatlarini tartibga solishni taqozo qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning barcha sohalarini, jumladan ko'chmas mulka egalik qilish, undan foydalanish hamda tassarruf qilish sohalarini ham soliq tizimi orqali tartibga soladi. Ko'chmas mulkdan olinuvchi soliqlar Davlat byudjetining shakllantirishda o'z o'rniga ega. Jismoniy shaxslarning mol-mulkidan undiriladigan soliq mexanizmini hozirgi zamonga mos holda takomillashtirmasdan turib, respublikamizda ko'chmas mulk munosabatlarini rivojlantirib bo'lmaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturlarning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, Xalq so'zi, 2014 yil 19 yanvar

1.Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig`ini mohiyati va ahamiyati

Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig`i to`g`ri soliq tarkibiga mansub hisoblanadi. Shu ma`noda ushbu soliq mol-mulk sotib olish vaqtida yoki jamg`arish vaqtida undiriladi. Jismoniy shaxslardan undiriluvchi mol-mulk solig`ini real soliq ham deb atash mumkin. Chunki soliq bevosita jismoniy shaxsning mol-mulkidan undiriladi. Jismoniy shaxslardan undiriluvchi mol-mulk solig`i tizimli soliq hisoblanadi. Tizimliliigi shundan iboratki, jismoniy shaxslardan undiriluvchi mol-mulk solig`i yiliga bir marotaba, doimiy undiriladi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig`i ham boshqa soliqlar singarni fiskal, tartibga soluvchi, nazorat , taqsimlovchi funktsiyalariga ega.

Soliqlarni undirish instrumenti davlat boshqaruvining asosiy vositasi hisoblanadi. Davlatning soliq siyosati baho siyosati bilan bevosita bog`liq. Soliqlar yordamida mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati tartibga solinadi, soliqqa tortish darajasi tashqi investitsiya oqimiga, xo`jalik hisobidagi daromad va xarajatlar miqdoriga o`z ta`sirini ko`rsatadi.

Davlat o`z zimmasiga olgan funktsiyalarni bajarish uchun aynan soliqlar zarur hisoblanadi. Mamlakat xo`jaligini bir maromada ishlashini ta`minlash uchun davlat turli toifadagi ijtimoiy fondlarni tashkil qiladi.

Soliqlarni joriy qilish, soliq miqdorini oshirish,yoki kamaytirish orqali hukumat mamlakatda ayrim turdagi iqtisodiy faoliyatni cheklashi, ishlab chiqarishni, sotuv jarayonini, ayrim tovarlar iste`molini chegaralashi mumkin.

Aksincha, soliqlarni joriy qilish, soliq miqdorini oshirish,yoki kamaytirish orqali hukumat mamlakatda ayrim turdagi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, ishlab chiqarishni, sotuv jarayonini, ayrim tovarlar iste`molini rag`batlantirish mumkin.

Xullas, soliqlar vositasida davlat korxonalarning iqtisodiy faolligini oshirishi hamda muomaladagi pul miqdorini tartibga solish mumkin.


Soliqlar qiymat kategoriyasi sifatida o'z belgilariga va funktsiyalariga ega. Soliqlarning belgilari va funktsiyalari ularning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib beradi.

Soliq tizimining tarixiy rivojlanishi soliqning uchta asosiy funktsiyalarini – fiskal, rag'batlantirish va tartibga solish funktsiyalarini belgiladi.

Soliq funktsiyalari bu, - uning mohiyatini amalda ko'rsatish, xususiyatlarni bildirish usuli. Daromadning taqsimlash va qayta taqimlash instrumenti sifatida soliq funktsiyalari soliqning ijtimoiy ahamiyatini belgilab beradi.3-chizmaga qarang.

3-chizma²

Soliqlar tomnidan bajariluvchi asosiy funktsiyalar



Soliqlarning fiskal funktsiyasi yordamida mamlakatning umumilliy ehtiyoji qondiriladi. Tartibga solish funktsiyasi orqali umumdavlat, korporativ hamda shaxsiy manfaatlar balanslashtiriladi. Boshqa so'zlar bilan bayon qilinganda, soliqning tartibga solish funktsiyasi orqali investitsion jarayonlarning to'xtovsizligi, biznes faoliyatini moliyaviy natijasini o'sishini, shuningdek umumilliy markazlashgan pul fondlarini o'sishi taminlanadi.

² Muallif tomonidan tuzilgan

Soliqlarning fiskal funktsiyasi davlat byudjetini daromad qismini shakllantirishda ishtirok etar ekan, u davlatning alohida nazorati va ta'siri ostida bo'ladi. SHu sababli, soliqning fiskal funktsiyasi, doimo davlanning moliyaviy siyosatining markazidan o'rin egallaydi.

Tartibga soluvchi funktsiyani makroiqtisodiy funktsiya deb ham talqin qilish mumkin. Makroiqtisodiy funktsiya sifatida, soliqlar yordamida makroiqtisodiy jarayonlarni, jami talab va taklifni, o'sish sur'atini hamda bandlik darajasini tartibga soladi.

Soliq tizimining taqsimlash funktsiyasi baho, foyiz, aktsiyalar kursining dinamikasi va boshqa moliyaviy instrumentlar bilan o'zaro munosabatga kirishadi. SHu sababli, soliqlar milliy daromadni, yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlarini taqsimlash va qayta taqsimlash instrumenti sifatida o'zini ko'rsatadi. Soliqlarning taqsimlash funktsiyasi nafaqat daromadni taqsimlashga ta'sir qiladi, balkim kapital hamda investitsion resurslarning harakatiga ham jiddiy ta'sir qiladi.

Soliqlarning ijtimoiy funktsiyasi ko'p jab'haga ega hisoblanadi. Davlat tomonidan pul mablag'larini ishlab chiqarish sohasidan olib, markazlashgan fundlariga aylantirish jarayoni hamda markazlashgan pul fondlarining noishlab chiqarish sohalariga joylashtirilishi – soliqning moddiy mazmunini belgilaydi. Soliqning bunday moddiy mazmuni uning ijtimoiy xarakterini asosini tashkil qiladi. Davlat tomonidan markazlashgan pul fondlaridan maorif, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy soha xarajatlarini moliyalashtiriladi.

Bundan tashqari soliqlarning ijtimoiy xarakteri ularning mexanizmida mavjud bo'lgan soliq imtiyozlari, soliq stavkalari orqali namoyon bo'ladi. Soliq imtiyozlari va soliq stavkalari orqali ijtimoiy funktsiyalarni bajarilishi- soliqlarning ichki ijtimoiy funktsiyasini anglatadi.

Soliqlarning ijtimoiy funktsiyalari mavjud soliq imtiyozlarini fundamental o'rganishni talab qiladi. Chunki, ayrim soliq imtiyozlarini kuchaytirish talab qilsa, ayrimlarini bekor qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy

kriteriyalarga hamda bozor iqtisodiyoti talablariga jabov bermaydigan soliq imtiyozlarini bekor qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Soliqlarning nazorat funktsiyasi o'ziga xos himoya vositasi deb atash ham mumkin. Nazorat funktsiyasi orqali davlat va korxona, davlat va jismoniy shaxslar o'rtasidagi soliq munosbatlarini ishlab chiqaradi, davlat hokimiyatini kuchini realizatsiya qiladi. Soliqning nazorat funktsiyasiz uning boshqa funktsiyalari samarali ishlamaydi yoki ishlash mexanizmi buziladi.

Soliq tizimining nazorat funktsiyasi qonunlarga, huquqlarga tayangan holda, qonun talablariga va davlat soliq xizmati idoralarining kuchlariga itoat qilishga majbur qilish asosida amalga oshiriladi. Davlat funktsiyasining kuchsizlanishi soliqning nazorat funktsiyasini kuchsizlanishiga olib keladi. Aksincha, soliqning nazorat funktsiyasining susayishi davlat hokimiyatini susayishiga olib keladi.

Soliqlarning nazorat funktsiyasi soliq qonunlarini majburiy tartibda bajarilishida, soliq to'lovlarini to'liqligicha yig'ilishda, soliq jarimalarini samaraliligida, qonun bilan belgilangan davlat oldidagi majburiyatlarini bajarmayotgan yoki to'liq bajarmagan shaxslarning mas'uliyat darjasida namoyon bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, soliqning nazorat funktsiyasining susayishi, uning boshqa funktsiyalarini ham susayishiga olib keladi.

2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari, soliq solish bazasini aniqlash jarayoni

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Chunki, barcha jismoniy shaxslar ham soliq to'lovchilari hisoblanmaydi. Ayrim jismoniy shaxslarda ularga teshishli mol-mulk bo'lmasligi mumkin. Ayrim toifadagi soliq to'lovchilarning ixtiyorida mol-mulk bo'lsada, Hukumatimiz tomonidan soliq imtiyozlari berilgan bo'lishi mumkin. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilarining tarkibi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini 272- moddasida keltirilgan. Soliq kodeksining ushbu moddasiga asosan, jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i to'lovchilari sifatida quyidagilar e'tirof etilgan: Mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilaridir³.

Birinchi bobda jismoniy shaxs tushunchasini ko'rib chiqqan edik Jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarorlari, chet el fuqarolari, fuqaroligi mavjud bo'lmagan shaxslar bo'lishlari mumkin. SHu ma'noda respublikamizda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolar mulkida soliq solinadigan soliq ob'ekti bo'lsa, jismoniy shaxslardan undiriluvchi mol-mulk solig'i to'lovchilari hisoblanishadilar.

Respublikamiz hududida joylashgan, jimoniy shaxslarga tegishli ayrim mol-mulklarni mulkdori kimligini aniqlash, ularning yashash manzilishi belgilash imkoniyati mavjud bo'lmasligi mumkin. Bunday holatlarda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq qonunchiligiga asosan, agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan erini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida yoki foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchi deb qabul qilinadi.

³ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.(O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 52 (i)-son

Albatta, jismoniy shaxslardan undiriluvchi soliq tushumlari davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda o'z ulushiga ega. Soliq to'lovchi hisoblangan jismoniy shaxslarning sonini ortishi hamda soliq ob'ektlarining miqdorini o'sishi davlat byudjetini daromad qismini shakllantirishga ijobiy ta'sir qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga tobora integratsiyalashuvining oshishi, respublikamizning chet davlatlar bilan amalga oshirayotgan a'loqalarini kengayishi xorijiy mamlakatlarning fuqarolarini respublikamizga tashrifini oshirmoqda. Bir vaqtda, chet mamlakat fuqarolari respublikamizning rezidenti hamda norezidenti sifatida ko'chmas mulkka ega bo'lmoqda. Chet el fuqarolari ham respublikamiz hududida investitsion faoliyat bilan shug'illanishi, shuningdek ko'chmas mulklar sotib olib, mulk egalariga aylanishiga keng yo'l ochilgan. Shu sababli, respublikamizning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi darajasini oshishi, tashqi iqtisodiy a'loqalarini mustahkamlanishi soliq to'lovchi hisoblangan jismoniy shaxslarning sonini oshishiga olib kelmoqda.

Jismoniy shaxslarning mol-mulklaridan undiriluvchi soliq majburiyatlarini hisoblashda soliq solish ob'ektini to'g'ri aniqlash o'ta muhim jarayon hisoblanadi. Haqiqatda, jismoniy shaxslarning mol-mulklarini tarkibi xilma-xildir. Jismoniy shaxslarning mol-mulklaridan olinuvchi soliq solish ob'ekti sifatida ularning kvartiralar, dachalari, garajlari, binolari, inshootlari, omborxonalari, bostirmalari, yo'laklari, uy hayvonlari va parrandalarini boqish uchun mo'ljallangan imoratlari, yozgi oshxonalari, tandırxonalari, er to'lalari, hammomlari, hovlidagi hojatxonalari, dushxonalari, issiqxonalari, hovuzlari, saunalari, qozonxonalari va odamlarning vaqtincha turishi bilan bog'liq turli ish turlarini bajarish uchun mo'ljallangan boshqa funktsional imoratlari misol bo'la oladi.

3. Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkdan undiriluvchi soliqni hisoblash va byudjetga to'lash jarayoni

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 277-moddasida jismoniy shaxslarning mol-mulklaridan undiriluvchi soliq soliqlarni hisoblash tartibi bayon qilingan. Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibiga asosan jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq idorasi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu soliqlarni hisoblash tartibining o'ziga xosligi shundan iboratki, soliqlarni hisoblash mulkdorning yashash manzili, ro'yxatda turgan joyiga bog'liq emas. Jismoniy shaxslarning yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish ob'ekti joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslarning mol-mulkiga to'g'ri keluvchi soliq summasi hisoblab chiqariladi. Soliq bazasi sifatida qabul qilinuvchi ko'chmas mulkning inventarizatsion qiymati ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlari tuman hududida o'tgan yilda jami ro'yxatga olingan ko'chmas mulklar, mulkdorlarning ismi sharifi, familiyasi, mulk ob'ektining fizik ko'rsatkichlari, ularning inventarizatsion qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq solish ob'ekti joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim qiladi. 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra ko'chmas mulk va uning inventarizatsion qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar tomonidan har yili 1 fevralgacha taqdim etadi.

Bitta mulk ob'ekti bir nechta mulkdorga tegishli bo'lganda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mulkdorlarning har biri tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mos ravishda hisoblanadi.

Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi joriy yilda bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mulkiga solinadigan soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar bo'lgan soliq midorini to'laydilar.

Mulk ob`ektining yangi mulkdori tomonidan esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e`tiboran to`lanadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan yangi imoratlar, binolar va inshootlarni joriy yilda qurib bitirishi mumkin. Bunday holatlarda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ular barpo etilgan yildan keyingi yil boshidan boshlab to`lanadi.

Oldingi paragrafda taakidlanganidek, jismoniy shaxslarda mol-mulk meros olish yo`li bilan ham paydo bo`lishi mumkin. Meros bo`yicha o`tgan mol-mulk uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq merosxo`rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e`tiboran to`lanadi.

Mulk ob`ektlari ularning egalari tomonidan ixtiyoriy yoki boshqa sabablar bilan yo`q qilishi mumkin. Soliq solish ob`ekti yo`q qilingan, vayron bo`lgan, buzib tashlangan holatlarda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirish mol-mulk yo`q qilingan, vayron bo`lgan yoki buzib tashlangan oydan e`tiboran to`xtatiladi. Oldingi hisoblangan soliq summasini qayta hisob-kitob qilish uchun mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organi tomonidan berilgan hujjat asosida amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarda joriy davrda imtiyoz huquqi vujudga kelgan holatlarda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni qayta hisob-kitob qilish soliq imtiyozidan foydalanish huquqi vujudga kelgan oydan e`tiboran amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to`lash to`g`risidagi to`lov xabarnomasi mulk ob`ekti joylashgan joy tumanining soliq inspeksiyasi tomonidan rasmiylashtirilib, soliq to`lovchilarga har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

Soliq davri uchun hisoblangan jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq soliq to`lovchilar tomonidan hisobot yilining 15 oktyabriga qadar amalga to`lanishi shart.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig`i bo`yicha soliq majburiyatini muddatidan oldin bajarilishi mumkin.

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari kalendar sanada o'rnatiladi. O'z navbatida kalendar sana, yil, yil choragi, oy, o'n kunlik va kun o'tishi bilan belgilanadi.

Soliq majburiyatlarini bajarish muddatning boshlanish vaqti kalendar sanadan yoki muddatning boshlanishi belgilab qo'yilgan voqea yuz berganidan keyingi kundan boshlanadi. Muddati belgilangan soliq majburiyatini bajarish vaqti so'nggi kuni soat yigirma to'rtga qadar belgilanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinuvchi soliq majburiyatlarini bajarish muddatining so'nggi kuni dam olish kuniga to'g'ri kelib qolsa, dam olish kunidan keyingi birinchi ish kuni soliq majburiyatini bajarish muddatning tugash kuni deb e'tirof etiladi.

Davlat soliq xizmati organi yozma ariza bergan sanadan e'tiboran uch kunlik muddatda hisobga olishni amalga oshirish to'g'risidagi xulosani moliya organlariga taqdim etadi.

Tegishli moliya organlari qaytarish to'g'risidagi ariza topshirilgan sanadan e'tiboran o'ttiz ish kuni ichida ortiqcha to'langan soliq summasini qaytaradi

Jismoniy shaxslar uchun soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnoma shartlarini bajarish muddati - olingan kundan boshlab o'n kun belgilangan. 10 kun ichida bajarilmagan talabnomalar yuzasidan davlat soliq xizmati organlari soliq qarzini jismoniy shaxsdan undirish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojat qiladi.

Xulosa

Jismoniy shaxslarning mol-mulklaridan undiriluvchi soliq tizimini takomillashtirish uchun jismoniy shaxs, jismoniy shaxsning mulklari va mulkiy huquqlari, mulkiy huqlarning paydo bo'lishi tushunchalarni mohiyatini anglash lozim. Jismoniy shaxs deganda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarosi bo'lmagan shaxslar, chet el fuqarolari tushuniladi. Fuqarolik holatlarini belgilash, jismoniy shaxslarning mulkiy huquqlari, mulkiy munosabatlarning paydo bo'lishi, jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mol-mulklarni soliqqa tortish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodesi, Soliq kodeksi va boshqa amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Jismoniy shaxslardan undiriluvchi mol-mulk solig'i soliqlar uchun belgilangan umumiy tamoyillarga asoslanadi va boshqa soliqlar bajaruvchi funktsiyalarni bajaradi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulklaridan undiriladigan soliq miqdori soliq xizmati xodimlari tomonidan hisoblanadi va joriy yil tugugundan keyingi yilning 1 mayiga qadar soliq to'lovchilarga ma'lumotnomalar yuboriladi. Hisoblangan soliq summasi jismoniy shaxslar tomonidan keyingi yilning 15 oktyabrga qadar to'lanadi.

Jismoniy shaxslardan undiriluvchi mol-mulk solig'ining soliq ob'ekti hamda soliq solish bazasi ko'chmas mulkni ro'yxatga oluvchi idoralar tomonidan taqdim qilinuvchi ma'lumotlar, shuningdek ko'chmas mulning inventarizatsion qiymati asosida aniqlanadi.

Jismoniy shaxslardan undiriluvchi mol-mulk solig'i ko'chmas mulning inventarizatsion qiymati hamda belgilangan soliq stavkalari asosida topiladi.

Hisoblangan soliqlar jismoniy shaxslar tomonidan mustaqil ravishda to'lanadi. O'z vaqtida to'lanmagan soliq summasi soliq boqimandasi deb e'tirof etiladi. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha boqimanda qarzlari belgilangan tartibda sud orqali undiriladi.

Respublikamiz soliq tizimida jismoniy shaxslarning mol-mulklaridan soliq undirish jarayonini takomillashtirish borasida ko'plab ishlar qilingan va amalga

oshirilmoqda. Bu borada ijobiy natijalarga erishilgan. SHunga qaramasdan, jismoniy shaxslarning mol-mulklariga soliq solish tizimida echilishi zarur bo'lgan muammolar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. "Adolat" , 2016 y.,
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. . "Adolat" , 2016 y.,
3. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. //Darslik. –T.: "SHarq". 2009. -526 b.
4. Almardonov M., Kuzieva N. Soliqlar va soliqqa tortish. -T.: "Iqtisod-moliya". 2007.
5. Yuldashev I. Soliq va soliqqa tortish. -T.: Fan va texnologiyalar. 2007.
6. Toshmurodova B. Soliq nazorati. //O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya. 2007.
7. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. //O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya. 2005.
8. Jo'raev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi. //O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod-moliya". 2005.
9. Abduraxmonov O., Kushakaev B. Soliq islohotlari: izchillik va tadrijiylik. - T.: "Akademiya". 2005.
10. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. //O'quv qo'llanma. -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi". 2005.
11. Jo'raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. //monografiya. –T.: "Fan". 2004.
12. Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat byudjeti (o'quv qo'llanma) / Toshkent Moliya instituti. – Toshkent. 2007. 80 bet.
13. Тарасова В.Ф.,Владыка М.В.,Сапрыкина Т.В. Налоги иналогообложение.//Учебник.-М.:КНОРУС, 2009.-480с.
14. Черник Д., Павлова Л., Дадашев А. Налоги и налогообложение. //Учебник. -М.: ИНФРА-М. 2003.
15. <http://www.prezident.uz>-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti
16. <http://www.soliq.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti
17. <http://www.mf.uz>-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti

18. <http://www.nalog.ru>-Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti
19. <http://www.stat.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti
20. <http://www.lex.uz>-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.